Инсульт билан касалланишга чекишнинг таъсири. АГ ва чекувчилар орасида инсульт билан касалланиш, АГ бор лекин чекмайдиганларга қараганда никотин дозасидан қатъий назар 2 баробар кўп учраган. Бундан ташқари тадқиқотлар шуни кўрсатадики, инсультнинг бошқа хавф омиллари бартараф қилинганда ҳам, чекиш инсульт хавфини, айниқса мия инфарктини келиб чиқишини ортиради. Инсульт хавфи сигаретлар миқдорининг ортиб бориши билан кўпайиб боради. Инсультнинг нисбий хавфи “оғир чекувчиларда” (қунига 40 та сигаретдан кўп), “енгил чекувчилар” га (қунига 10 та сигаретдан кам) қараганда икки мартаба юқоридир. Чекиш субарахноидал қон қуйилиш хавфини (САҚҚ) 2 – 4 мартагача орттириши ишончли даражада исботланган. Бунда инсульт хавфи чекишни 2 йилга тўхтатилганда камайиши ва 5 йилдан кейин чекмайдиганлар билан бир хил даражада бўлганлиги аниқланган [48].

Қандли диабет (ҚД) – бирламчи ва такрорий инсультга олиб келувчи асосий мустақил хавф омилларидан бири ҳисобланади. Инсульт билан касалланиш ҚД билан касалланган эркакларда 1,5 – 4 марта, аёлларда 2 – 6 марта, шу ёшдаги ҚД билан касалланмаган эркак ва аёлларга қараганда юқори бўлади [21, 50].

Инсульт билан касалланганлар орасида ҚД нинг тарқалиши 11 – 43 % ни ташкил этиб, бу умумий популяциядаги ҚД нинг (4 – 6 %) тарқалишидан кўпдир. ҚД билан касалланганларда 65 ёшдан кейин ЮИК дан кейин инсульт иккинчи асорат ҳисобланади. Инсульт ривожланишида ҚД нинг хавф омил сифатидаги аҳамияти охириги йилларда бутун дунё бўйича ортиб бормокда. ҚД билан касалланганларда кўпинча ишемик инсультнинг лакунар тури кўпроқ учрайди. Бироқ ҚД билан касалланган беморларда ГИ ривожланиш хавфи умумий популяциядагидан фарқ қилмайди [47].

ҚД заминида инсультнинг кечиши янада оғирроқ ва ёмонроқ оқибатларга олиб келади. ҚД билан оғриган беморларда инсультдан ўлим касалхона босқичида ҳам, касалликнинг узок муддатларида ҳам ҚД сиз инсульт ўтказган беморларга қараганда 2-5 баравар юқори бўлади. Қандли диабет билан оғриган шахсларда атеросклерозга мойиллик кучаяди, проатероген омилларнинг юқори





даражаси ва атипик қон липидлари даражаси мавжудлиги аниқланади. Ушбу ўзаро алоқадорликни тушуниш кўп жиҳатдан даволаш ва профилактика чоралари стратегиясини белгилайди [16].

Ишемик генезли юрак касалликлари инсулт учун муҳим хавф омилдир, масалан, юрак ритми бузилиши билан оғриган беморларда инсулт хавфи 3,5 баравар, анамнезида миокард инфаркти бўлган беморларда 2,9-5 баравар ортади [15]. Сурункали ёки пароксизмал бўлмачалар фибриляцияси (БФ) юрак клапани нуқсони бўлмаган тақдирда ҳам ишемик инсулт хавфини 4-5 баравар ошишига олиб келади. БФ сабабли келиб чиққан тромбоэмболия 10% ҳолатларда ишемик инсултга сабаб бўлиб, асосан кексалар орасида кўпроқ кузатилади. БФ нинг мавжудлиги инсулт ҳолатини оғирлаштиради ва касаллик прогнозини ёмонлаштиради. Баъзи беморларда БФ ташхиси биринчи марта инсулт пайтида аниқланади [1, 14].

Ўзгартирилиши мумкин бўлган хавф омиллари орасида семизлик ҳам хавфлилик даражаси бўйича кам аҳамиятга эга эмас. Кўпгина тадқиқотлар шуни кўрсатдики, тана вазни индексининг ортиши юрак-қон томир касалликлари хавфини оширади, шу жумладан юрак ишемик касаллиги ва инсулт хавфи ортишига олиб келади. Бироқ, сўнгги йилларда беморнинг жисмоний ҳолатини баҳолаш стратегияси ўзгарди. Маълум бўлишича, асосий морбид омил нафақат тана вазнининг ортиши, балки бел атрофи айланасининг катталаниши ёки абдоминал семизлик ҳамдир. Аёлларда бел айланасининг 80 см дан катта ва эркакларда 94 см дан катта бўлиши артериал гипертензия [40, 49] пайдо бўлишига олиб келади ва бу ўз-ўзидан юрак-қон томир касалликлари учун етакчи хавф омилдир. Шуни таъкидлаш керакки, семизлик ва тана вазнининг ортиши инсулт учун хавф омил сифатида ўрганилганда, БМҚАЎБ нинг ўзига хос алоҳида турига урғу берилмайди. Бу ЮҚТК патогенезига семизликнинг полиэтиологик таъсири билан боғлиқдир [8, 28, 36, 46].

Спиртли ичимликларни суиистеъмол қилиш ҳам ишемик, ҳам геморрагик инсулт учун тасдиқланган хавф омил ҳисобланади. Спиртли ичимликлар юрак-қон томир тизимига ва қон ивишига салбий таъсир кўрсатади [55, 62]. Спиртли ичимликларнинг кичик дозалари антитромботик таъсири туфайли нейропротектив ва кардиопротектив таъсири ҳақида далиллар мавжуд,





аммо илгари ўйланганидек, антиатеросклеротик таъсирга эга эмас [42]. Бошқа томондан, алкогольнинг юқори дозалари бирламчи ва такрорий инсулт билан касалланишнинг сезиларли даражада ортишига олиб келиши тасдиқланган. Шунингдек, спиртли ичимликларни суистеъмол қиладиган беморларда САҚҚ ва МИҚҚ ривожланиш хавфи спиртли ичимликларни истеъмол қилмайдиганларга қараганда уч барабар юқори эканлиги кўрсатиб ўтилган [55]. Ҳаёти давомида узок муддат мунтазам равишда юқори дозаларда спиртли ичимликларни истеъмол қиладиган шахсларда ИИ ривожланишининг эҳтимоллиги жуда юқори бўлиши кузатилган [13, 30].

Турли хил хавф омилларининг биргаликдаги таъсири инсулт хавфини оширади. Коморбид касалликлар барча инсулт ҳолатларининг 74,5% да учрайди. Баъзи муаллифларнинг фикрига кўра, гипертония ва диабетнинг комбинацияси инсулт билан оғриган беморларнинг 22,7 фоизида кузатилган. ҚД, инфарктдан кейинги кардиосклероз ва АГ касалликларининг кўшилиб келиши беморларнинг 7,8 фоизида қайд қилинган. Тадқиқот натижаларига кўра, коморбидлик даражасининг ортиб бориши оқибатида салбий функционал яқун ва леталлик даражаси кўпайиши ўртасида ижобий боғлиқлик мавжудлиги аниқланган [39].

Инсултнинг бошқа бир қатор хавф омиллари таклиф қилинган, бироқ улар камроқ ҳужжатлаштирилган. Ушбу хавф омилларидан баъзилари куйида келтирилган бўлиб, улар орал контрацептивларини қўллаш, васкулитлар, яллиғланиш жараёнлари, мигрен, уйқудаги апноэ, протромбин фаоллаштирувчи комплексининг етишмовчилиги, гипотензия, С-реактив оқсилнинг баланд бўлиши, нейроцистицеркозни ўз ичига олади [9, 29, 32, 35, 58].

Инсулт частотасининг юқори даражага кўтарилиши аҳолининг инсулт хавф омиллари ва унинг даракчилари тўғрисидаги маълумотлардан етарлича хабардор эмаслиги билан боғлиқ. Инсултга олиб келувчи хавф омиллар ҳақида аҳолини хабардор қилиш уларни инсултнинг олдини олиш чораларига риоя қилишига олиб келади, шу билан бирга инсултнинг ривожланиш белгиларини билиш инсулт билан касалланган беморларни тегишли шифохона бўлимларига ўз вақтида ётқизишга сабаб бўлади [53, 61].

Халқаро тадқиқотлар барча инсулт ҳолатларининг 88,1 фоизида 10 та хавф омили кузатилишини ишончли исботлади. Инсултнинг барча турлари учун





муҳим хавф омили - бу гипертония, чекиш, абдоминал семизлик, (бел / сон нисбати), нотўғри овқатланиш, мунтазам жисмоний фаолиятнинг етишмаслиги, ҚД, спиртли ичимликларни суиистеъмол қилиш, руҳий зўриқиш ва депрессия, юрак касалликлари, дислипидемия ҳисобланади [17, 22, 23, 24, 45, 52].

Хулоса: Шундай қилиб ўтказилган илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатдики, гипертония касаллиги дунёнинг барча минтақаларида ирқий тафовутга қарамасдан инсультнинг асосий етакчи хавф омилларидан бири бўлиб қолмоқда. Келажакда ҳам инсульт ҳолатининг ортиб бориши кутилмоқда, бу асосан инсульт хавфи юқори бўлган давлатларда хавф омилларини яхшироқ билиб олишга бўлган талабни оширади.

Бугунги кунда **инсульт ўтказган беморларда тўлиқ даволашдан кўра унинг олдини олиш осонроқ ва самарали эканлиги исботланган.** Инсульт профилактикаси учун жамиятда инсульт ҳолатларини келтириб чиқарадиган хавф омилларини камайтиришга қаратилган чора тадбирларни олиб бориш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Armaganijan L. et al. New pharmacotherapy for stroke prevention in atrial fibrillation: update 2010 //Advances in therapy. – 2009. – Т. 26. – С. 1058-1071.
2. Asdaghi N. et al. Sex disparities in ischemic stroke care: FL-PR CReSD study (Florida–Puerto Rico Collaboration to Reduce Stroke Disparities) //Stroke. – 2016. – Т. 47. – №. 10. – С. 2618-2626.
3. Béjot Y., Delpont B., Giroud M. Rising stroke incidence in young adults: more epidemiological evidence, more questions to be answered //Journal of the American Heart Association. – 2016. – Т. 5. – №. 5. – С. e003661.
4. Belt G. S. Global Stroke Belt //Stroke. – 2015. – Т. 46. – С. 3564-3570.
5. Boot E. et al. Ischaemic stroke in young adults: a global perspective //Journal of Neurology, Neurosurgery & Psychiatry. – 2020. – Т. 91. – №. 4. – С. 411-417.
6. Cabral N. L. et al. Increase of stroke incidence in young adults in a middle-income country: a 10-year population-based study //Stroke. – 2017. – Т. 48. – №. 11. – С. 2925-2930.
7. Carey R. M., Whelton P. K., 2017 ACC/AHA Hypertension Guideline Writing Committee*. Prevention, detection, evaluation, and management of high blood pressure in adults: synopsis of the 2017 American College of Cardiology/American





- Heart Association Hypertension Guideline //Annals of internal medicine. – 2018. – T. 168. – №. 5. – C. 351-358.
8. Dorner T. E., Rieder A. Obesity paradox in elderly patients with cardiovascular diseases //International journal of cardiology. – 2012. – T. 155. – №. 1. – C. 56-65.
 9. Dulicek P. et al. Analysis of risk factors of stroke and venous thromboembolism in females with oral contraceptives use //Clinical and Applied Thrombosis/Hemostasis. – 2018. – T. 24. – №. 5. – C. 797-802.
 10. Ekker M. S. et al. Stroke incidence in young adults according to age, subtype, sex, and time trends //Neurology. – 2019. – T. 92. – №. 21. – C. e2444-e2454.
 11. Everett B., Zajacova A. Gender differences in hypertension and hypertension awareness among young adults //Biodemography and social biology. – 2015. – T. 61. – №. 1. – C. 1-17.
 12. Fredwall M. et al. Gender differences in exclusion criteria for recombinant tissue-type plasminogen activator //Journal of Stroke and Cerebrovascular Diseases. – 2016. – T. 25. – №. 11. – C. 2569-2574.
 13. Goldstein L. B. et al. Guidelines for the primary prevention of stroke: a guideline for healthcare professionals from the American Heart Association/American Stroke Association //Stroke. – 2011. – T. 42. – №. 2. – C. 517-584.
 14. Goto S. et al. Prevalence, clinical profile, and cardiovascular outcomes of atrial fibrillation patients with atherothrombosis //American heart journal. – 2008. – T. 156. – №. 5. – C. 855-863. e2.
 15. Gupta R., Wood D. A. Primary prevention of ischaemic heart disease: populations, individuals, and health professionals //The Lancet. – 2019. – T. 394. – №. 10199. – C. 685-696.
 16. Hosomi N. et al. Desirable low-density lipoprotein cholesterol levels for preventing stroke recurrence: a post hoc analysis of the J-STARS study (Japan statin treatment against recurrent stroke) //Stroke. – 2018. – T. 49. – №. 4. – C. 865-871.
 17. Hosomi N. et al. Pravastatin reduces the risk of atherothrombotic stroke when administered within six months of an initial stroke event //Journal of Atherosclerosis and Thrombosis. – 2018. – T. 25. – №. 3. – C. 262-268.
 18. HPS3/TIMI55–Reveal Collaborative Group. Effects of anacetrapib in patients with atherosclerotic vascular disease //New England Journal of Medicine. – 2017. – T. 377. – №. 13. – C. 1217-1227.
 19. Hudayberganov N. Y., Jabbarov M. T., Matyoqubov M. O. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF TRANSIENT CEREBRAL CIRCULATION DISORDERS IN THE DEVELOPMENT OF CEREBRAL STROKES IN EMERGENCY





NEUROLOGY //ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION
AND TRAINING IN THE REGION. – 2017. – T. 2. – C. 131.

- 20.Husain M. J. et al. Access to cardiovascular disease and hypertension medicines in developing countries: an analysis of essential medicine lists, price, availability, and affordability //Journal of the American Heart Association. – 2020. – T. 9. – №. 9. – C. e015302.
- 21.Jiang L. et al. Translating the diabetes prevention program into American Indian and Alaska native communities: results from the special diabetes program for Indians diabetes prevention demonstration project //Diabetes care. – 2013. – T. 36. – №. 7. – C. 2027-2034.
- 22.Johnson C. O. et al. Global, regional, and national burden of stroke, 1990–2016: a systematic analysis for the Global Burden of Disease Study 2016 //The Lancet Neurology. – 2019. – T. 18. – №. 5. – C. 439-458.
- 23.Johnson W. et al. Stroke: a global response is needed //Bulletin of the World Health Organization. – 2016. – T. 94. – №. 9. – C. 634.
- 24.Jousilahti P. et al. 40-year CHD mortality trends and the role of risk factors in mortality decline: the North Karelia project experience //Global heart. – 2016. – T. 11. – №. 2. – C. 207-212.
- 25.Kilichev I. A. et al. BRAIN STROKES IN ECOLOGICALLY UNFAVORABLE AREAS OF THE ARAL SEA REGION //Schizophr. Bull. – 2013. – T. 3. – C. 413-430.
- 26.Kilichev I. A. et al. Register of stroke in the desert-steppe zones of Uzbekistan //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 65. – C. 04002.
- 27.Kim Y. D., Jung Y. H., Saposnik G. Traditional risk factors for stroke in East Asia //Journal of Stroke. – 2016. – T. 18. – №. 3. – C. 273.
- 28.Lavie C. J. et al. Healthy weight and obesity prevention: JACC health promotion series //Journal of the American College of Cardiology. – 2018. – T. 72. – №. 13. – C. 1506-1531.
- 29.Lawson T. R. et al. Tissue plasminogen activator (rt-PA) in acute ischemic stroke: outcomes associated with ambulation //Restorative neurology and neuroscience. – 2015. – T. 33. – №. 3. – C. 301-308.
- 30.Leon D. A. et al. Alcohol increases circulatory disease mortality in Russia: acute and chronic effects or misattribution of cause? //International journal of epidemiology. – 2010. – T. 39. – №. 5. – C. 1279-1290.





31. Li B. et al. Sex differences in outcomes and associated risk factors after acute ischemic stroke in elderly patients: a prospective follow-up study // *Journal of Stroke and Cerebrovascular Diseases*. – 2015. – T. 24. – №. 10. – С. 2277-2284.
32. Li F. et al. Oral contraceptive use and increased risk of stroke: A dose-response meta-analysis of observational studies. *Front Neurol*. 2019;(10): 993 [Электронный ресурс].
33. Marks J. et al. Molecular-genetics aspects of migraine // *International scientific review*. – 2016. – №. 4 (14). – С. 212-215.
34. Mensah G. A. et al. Decline in cardiovascular mortality: possible causes and implications // *Circulation research*. – 2017. – T. 120. – №. 2. – С. 366-380.
35. Mensah G. A., Roth G. A., Fuster V. The global burden of cardiovascular diseases and risk factors: 2020 and beyond // *Journal of the American College of Cardiology*. – 2019. – T. 74. – №. 20. – С. 2529-2532.
36. Mitchell A. B. et al. Obesity increases risk of ischemic stroke in young adults // *Stroke*. – 2015. – T. 46. – №. 6. – С. 1690-1692.
37. Muntner P. et al. Trends in blood pressure control among US adults with hypertension, 1999-2000 to 2017-2018 // *Jama*. – 2020. – T. 324. – №. 12. – С. 1190-1200.
38. Nam K. W. et al. Cerebral white matter hyperintensity is associated with intracranial atherosclerosis in a healthy population // *Atherosclerosis*. – 2017. – T. 265. – С. 179-183.
39. Nathaniel T. I. et al. Co-morbid conditions in use of recombinant tissue plasminogen activator (rt-PA) for the treatment of acute ischaemic stroke // *Brain injury*. – 2016. – T. 30. – №. 10. – С. 1261-1265.
40. Ng M. et al. Global, regional, and national prevalence of overweight and obesity in children and adults during 1980–2013: a systematic analysis for the Global Burden of Disease Study 2013 // *The lancet*. – 2014. – T. 384. – №. 9945. – С. 766-781.
41. O'Donnell M. J. et al. Global and regional effects of potentially modifiable risk factors associated with acute stroke in 32 countries (INTERSTROKE): a case-control study // *The lancet*. – 2016. – T. 388. – №. 10046. – С. 761-775.
42. Rehm J., Taylor B., Patra J. Volume of alcohol consumption, patterns of drinking and burden of disease in the European region 2002 // *Addiction*. – 2006. – T. 101. – №. 8. – С. 1086-1095.
43. Savitz S. I. et al. Stem cells as an emerging paradigm in stroke 3 // *Stroke*. – 2014.





44. Shahreyar M. et al. Hyperlipidemia: Management with proprotein convertase subtilisin/kexin type 9 (PCSK9) inhibitors //The Journal of the American Board of Family Medicine. – 2018. – Т. 31. – №. 4. – С. 628-634.
45. Sirimarco G. et al. Atherogenic dyslipidemia and residual cardiovascular risk in statin-treated patients //Stroke. – 2014.
46. Sliwa K. Heart failure can affect everyone: the ESC Geoffrey Rose lecture. Eur HeartJ41 (12): 1298–1306 [Электронный ресурс].
47. Stanaway J. D. et al. Global, regional, and national comparative risk assessment of 84 behavioural, environmental and occupational, and metabolic risks or clusters of risks for 195 countries and territories, 1990–2017: a systematic analysis for the Global Burden of Disease Study 2017 //The Lancet. – 2018. – Т. 392. – №. 10159. – С. 1923-1994.
48. Syamlal G., Mazurek J. M., Dube S. R. Gender differences in smoking among US working adults //American journal of preventive medicine. – 2014. – Т. 47. – №. 4. – С. 467-475.
49. TRENDS O. Prevalence of obesity and trends in the distribution of body mass index among US adults, 1999-2010 //Jama. – 2012. – Т. 307. – №. 5. – С. 491-497.
50. Wapshott T. et al. Investigation of gender differences and exclusive criteria in a diabetic acute ischemic stroke population treated with recombinant tissue-type plasminogen activator (rtPA) //Journal of Vascular and Interventional Neurology. – 2017. – Т. 9. – №. 6. – С. 26.
51. Williamson J. D. et al. Effect of intensive vs standard blood pressure control on probable dementia: a randomized clinical trial //Jama. – 2019. – Т. 321. – №. 6. – С. 553-561.
52. Winovich D. T. et al. Factors associated with ischemic stroke survival and recovery in older adults //Stroke. – 2017. – Т. 48. – №. 7. – С. 1818-1826.
53. Zeng Y. et al. Knowledge of stroke warning signs and risk factors among patients with previous stroke or TIA in China //Journal of clinical nursing. – 2012. – Т. 21. – №. 19pt20. – С. 2886-2895.
54. Zimmerman M. S. et al. Global, regional, and national burden of congenital heart disease, 1990–2017: a systematic analysis for the Global Burden of Disease Study 2017 //The Lancet Child & Adolescent Health. – 2020. – Т. 4. – №. 3. – С. 185-200.
55. Аксельрод А. С., Сыркин А. Л. Нарушения со стороны сердечно-сосудистой системы и их коррекция у пациентов с алкогольной зависимостью, прекративших употреблять алкоголь //Эффективная фармакотерапия. – 2013. – №. 49. – С. 22-33.





56. Бобожанов У. А., Киличев И. А. STRUCTURE OF EPILEPTIC VESSELS IN CHILDREN RESIDING IN THE AREAL REGION AREA //Новый день в медицине. – 2019. – №. 3. – С. 70-72.
57. Бобожанов У. А., Садикова Г. К. CLINICAL AND DIAGNOSTIC CHARACTERISTICS OF CHILDREN'S EPILEPSY LIVING IN THE ARAL SEA REGION.
58. Болотова М. Н. и др. Синдром обструктивного апноэ сна как независимый фактор риска развития сердечнососудистых осложнений //Кардиоваскулярная терапия и профилактика. – 2009. – Т. 8. – №. 5. – С. 103-112.
59. Каерова Е. В. и др. Анализ основных факторов риска развития инсульта //Современные проблемы науки и образования. – 2017. – №. 6. – С. 133-133.
60. Киличев И. А., Адамбаев З. И., Матёкубов М. О. ДИНАМИКА НЕКОТОРЫХ ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ИНСУЛЬТА В ПУСТЫННО-СТЕПНЫХ ЗОНАХ УЗБЕКИСТАНА ЗА ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ РЕСПУБЛИКИ //Медицинские новости. – 2022. – №. 1 (328). – С. 76-78.
61. Орлова А. С. и др. Осведомленность населения о факторах риска и основных симптомах инсульта (обзор литературы) //Профилактическая медицина. – 2015. – Т. 18. – №. 6. – С. 91-96.
62. Остроумова О. Д. Алкоголь-друг или враг? //Эффективная фармакотерапия. – 2013. – Т. 49. – С. 8-12.
63. Худайбергганов Н. Ю., Жаббаров М. Т., Матёкубов М. О. Неврологическая семиотика у больных железодефицитной анемией тяжелой степени //Национальный журнал неврологии. – 2017. – Т. 1. – №. S11. – С. 54-56.





SUN'IY NAFAS APPARATINING BEMORLARGA FOYDALI VA NOJO'YA TA'SIRLARI

Axrorov Abror Ixtiyor og'li

Respublika Shoshilinch Tibbiy

Yordam Ilmiy Markazi Navoiy viloyat filiali,

+998942529300

Annotatsiya

Ushbu maqolada sun'iy nafas apparatining bemor organizmiga ko'rsatadigan foydali va nojo'ya ta'sirlari klinik nuqtayi nazardan yoritilgan. Zamonaviy intensiv terapiyada mexanik ventilyatsiya o'pkalarning gaz almashinuvini ta'minlashda, nafas olish mushaklari ishdan chiqqan hollarda, og'ir respirator sindromlarda hamda reanimatsion amaliyotda keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, uning uzoq muddatli qo'llanilishi qator asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin. Maqolada ushbu apparatning terapevtik imkoniyatlari va xavf-xatarlari, shuningdek, undan oqilona foydalanish bo'yicha ilmiy tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy nafas, mexanik ventilyatsiya, asoratlar, barotravma, reanimatsiya, kislorod, pnevmoniya

Kirish

Sun'iy nafas apparatlari nafas olish faoliyati buzilgan, hushsiz yoki o'pka faoliyati yetarli bo'lmagan bemorlarda kislorod almashinuvini ta'minlash uchun qo'llaniladi. Ushbu apparatlar og'ir patologiyalarda, operatsiyalar vaqtida, reanimatsion holatlarda, COVID-19 kabi virusli infeksiyalar asoratlarida asosiy yordam vositasi sifatida xizmat qiladi. Klinika amaliyotida mexanik ventilyatsiyadan foydalanish chuqur bilim, aniq ko'rsatma va ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Sun'iy nafas apparatining foydali jihatlari: Sun'iy nafas apparati bemor hayotini saqlab qolishning muhim vositasi hisoblanadi. U organizmga kislorod yetkazib berib, karbonat angidridni chiqarishga yordam beradi. Bu esa hujayralar faoliyatini tiklashda muhim rol o'ynaydi. Nafas olish mushaklari zaiflashganda yoki to'liq ishdan chiqqanda, ventilator ularning o'rini bosadi.





Ventilyatsiya orqali o'pka alveolalari ochiq holatda saqlanadi, bu esa atelektazisning oldini olishga yordam beradi. Ushbu apparat pnevmoniya, o'pka shishi, COVID-19 asoratlari kabi og'ir holatlarda samarali qo'llaniladi. Ventilyatsiya reanimatsiya jarayonlarida, ayniqsa yurak va nafas to'xtashida, tez yordam ko'rsatishda muhim vositadir.

Operatsiyalar vaqtida, ayniqsa umumiy narkozda, bemorning o'z mustaqil nafas ololmasligi tufayli, sun'iy nafas hayotiy zaruratga aylanadi. Nafas chastotasi, chuqurligi, bosimi va o'pka sig'imi to'liq nazorat ostida bo'ladi. Bu esa fiziologik holatni barqaror ushlab turishga yordam beradi.

Sun'iy nafas apparati yordamida yurak-qon tomir tizimining faoliyati ham bilvosita barqarorlashtiriladi. Gipotenziya, gipoksemiya holatlarining oldini olishda u katta ahamiyatga ega. Noinvaziv ventilyatsiya usullari bemorni intubatsiyasiz holatda qo'llab-quvvatlab, sog'ayish jarayonini tezlashtiradi.

Shuningdek, sun'iy nafas olish terapiyasi uy sharoitida, surunkali nafas yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda qo'llanilishi mumkin. Bu holatda bemor hayot sifati yaxshilanadi va yotib qolish xavfi kamayadi.

Sun'iy nafas apparatining nojo'ya ta'sirlari: Sun'iy nafas apparatining uzoq muddatli qo'llanilishi ayrim nojo'ya ta'sirlarni yuzaga keltirishi mumkin. Eng keng tarqalgan asoratlardan biri bu ventilyator-assotsiyalangan pnevmoniyadir. Bunda steril bo'lmagan intubatsiya, traxeya orqali kiritilgan naychalar orqali infeksiya rivojlanadi.

Yana bir muhim xavf — bu barotravmadir. Alveolalarga yuqori bosimda havo yuborilishi ularning yorilishiga, pnevmotoraksga olib kelishi mumkin. Bu holat yurakning ishlashini ham izdan chiqaradi, gipotenziya, aritmiyalar paydo bo'ladi.

O'pkaning ortiqcha shishishi, ya'ni volutravma ham kuzatiladi. Bu alveolalarning haddan tashqari kengayishi natijasida to'qima zararlanishiga olib keladi. Biotravma esa o'pka to'qimalarida yallig'lanish mediatorlarining ko'payishi orqali butun organizmda sepsisga o'xshash holatni chaqiradi.

Uzun muddat intubatsiyada qolgan bemorlarda traxeya shilliq qavati, vokal kordlar va tovush yo'llarida shikastlanishlar kuzatiladi. Ba'zan extubatsiyadan keyingi trakeal stenoz, ovoz yo'qolishi, laringospazm holatlari ham rivojlanadi.





Nafas olish mushaklarining ishdan chiqishi, diafragmaning sustlashuvi uzoq muddatli sun'iy ventilyatsiyaning yana bir salbiy jihati hisoblanadi. Bu holat bemorning apparatdan ajralishini murakkablashtiradi.

Shuningdek, yurak-qon tomir tizimi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatiladi. O'pka bosimi oshganda yurakka qaytuvchi venoz oqim kamayadi, bu yurak chiqishini pasaytiradi. Hazm va siydik tizimlari ham ishdan chiqishi mumkin, bu esa bemorning umumiy ahvolini yanada og'irlashtiradi.

Sun'iy ventilyatsiyada yotgan bemorlarda sedatsiyaga ehtiyoj yuqori bo'ladi. Bu esa ong buzilishi, deliriya, uzoq psixologik reabilitatsiyaga olib keladi. Ventilyatsiya yotoq rejimida bo'lishni talab qilgani sababli, bosim yaralari, muskul atrofiyasi, qon aylanishining buzilishi kuzatiladi.

Ushbu apparatlar resurs va iqtisodiy jihatdan ham katta yukni tashkil etadi. Doridarmon, monitoring, xizmat ko'rsatish va shifokor mehnati — barchasi katta xarajatlarni talab qiladi.

Xulosa

Sun'iy nafas apparatlari zamonaviy tibbiyotda ajralmas vosita hisoblanadi. Ular hayotni saqlab qolish, organizmning nafas olish faoliyatini tiklash, og'ir kasalliklarni davolashda muhim rol o'ynaydi. Biroq uning nojo'ya ta'sirlari va asoratlarini inobatga olgan holda, faqat aniq klinik ko'rsatmalar asosida, mutaxassislar nazorati ostida qo'llanilishi zarur. Klinika ordinatorlari uchun ushbu bilim va yondashuvlar amaliyotda muvaffaqiyatli va xavfsiz ishlashning asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Tobin MJ. Principles and Practice of Mechanical Ventilation. 3rd edition. McGraw-Hill Education, 2013.

Gattinoni L, Marini JJ. "Ventilator-induced lung injury: the anatomical and physiological framework." Critical Care Medicine. 2015; 43(3): 679–687.

Slutsky AS, Ranieri VM. "Ventilator-induced lung injury." New England Journal of Medicine. 2013; 369(22): 2126–2136.

Mancebo J. "Noninvasive ventilation in acute respiratory failure." Intensive Care Medicine. 2015; 41(1): 12–22.





Schmidt GA, Hall JB, Kress JP. Principles of Critical Care. 4th edition. McGraw-Hill Education, 2015.

World Health Organization. Clinical management of severe acute respiratory infection when COVID-19 is suspected. Interim guidance. WHO, 2020.

Kamal RM, El-Morshedy SM. "Ventilator Associated Pneumonia: Risk Factors and Prevention." Egyptian Journal of Chest Diseases and Tuberculosis. 2016; 65(1): 339–347.

MacIntyre NR et al. "Evidence-based guidelines for weaning and discontinuing ventilatory support." Chest. 2001; 120(6 Suppl): 375S–395S.

Esteban A et al. "Evolution of mechanical ventilation in response to clinical research." American Journal of Respiratory and Critical Care Medicine. 2002; 166(12): 1510–1514.





**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO
KOMPANIYALARDA BOSHQARUV USLUBLARINING O'ZGARISHI**

Shukurov Sherzod Xolmo`min o`g`li

Telfon raqam: 97-038-62-63

Anotatsiya; Ushbu maqolada global raqobat muhitida xalqaro kompaniyalarning boshqaruv uslublari va strategiyalarining raqamli transformatsiya sharoitida qanday o'zgarayotgani tahlil qilinadi. Tadqiqotda M. Porter, Bartlett va Ghoshal, Kim va Mauborgne kabi zamonaviy menejment nazariyalari asos qilib olinib, yetakchi transmilliy korporatsiyalarning yillik hisobotlari va xalqaro konsalting kompaniyalarining tahlillari o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari doirasida milliy biznesda xalqaro boshqaruv uslublari raqamli transformatsiya kontekstida joriy etishning ahamiyati yoritildi. Tadqiqot natijalari xalqaro kompaniyalarning boshqaruv uslublari raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, ijtimoiy mas'uliyat va ESG tamoyillariga asoslangan holda shakllanganini ko'rsatdi. Bundan tashqari, milliy kompaniyalar uchun xalqaro tajribalarni o'zlashtirish va zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish biznes samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, xalqaro kompaniyalar, boshqaruv uslublari, innovatsiyalar, ESG tamoyillari, milliy biznes, O'zbekiston Respublikasi qarorlari, strategik boshqaruv.

Аннотация; В этой статье будет проанализировано, как стили управления и стратегии международных компаний меняются в условиях цифровой трансформации в условиях глобальной конкуренции. В Исследовании М. За основу были взяты современные теории управления Портера, Бартлетта и гошала, Ким и Моборн, изучены годовые отчеты ведущих транснациональных корпораций и анализы международных консалтинговых компаний. Также в рамках постановлений и указов президента Республики Узбекистан была освещена важность внедрения международных стилей управления в национальном бизнесе в контексте цифровой трансформации. Результаты исследования показали, что стили управления международными компаниями формируются на основе принципов цифровых технологий, инноваций, социальной ответственности и ESG. Кроме того, для национальных компаний





освоение международного опыта и внедрение современных систем управления имеют важное значение для повышения эффективности бизнеса.

Ключевые слова: цифровая трансформация, международные компании, стили управления, инновации, принципы ESG, национальный бизнес, решения Республики Узбекистан, стратегическое управление.

Anotation; this article analyzes how the management styles and strategies of international companies are changing in the context of digital transformation in a global competitive environment. In The Study, M. Modern management theories such as Porter, Bartlett, and Ghoshal, Kim, and Mauborgne were taken as the basis and the annual reports of leading transnational corporations and analyses of international consulting companies were studied. Also, within the framework of decisions and decrees of the president of the Republic of Uzbekistan, the importance of introducing international management styles in national business in the context of digital transformation was highlighted. The results of the study showed that the management styles of international companies were formed based on the principles of digital technology, innovation, social responsibility and ESG. In addition, the acquisition of international experience and the introduction of modern management systems for national companies is important in improving business efficiency.

Keywords: digital transformation, international companies, management styles, innovation, ESG principles, national business, decisions of the Republic of Uzbekistan, strategic management.

Kirish

Zamonaviy global biznes muhiti raqamli transformatsiyaning tezkor rivojlanishi bilan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Xalqaro kompaniyalar nafaqat milliy, balki global bozorlarda faoliyat yuritishda raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar va zamonaviy boshqaruv uslublaridan samarali foydalanishga intilmoqda. Shu sababli, boshqaruv strategiyalarini raqamli transformatsiyaga mos ravishda tanlash va ishlab chiqish kompaniyaning global muvaffaqiyati uchun muhim omilga aylanmoqda.

Xalqaro kompaniyalar global standartlashtirish, lokal moslashuv, innovatsion yetakchilik, gibrid boshqaruv va ESG (atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv) tamoyillariga asoslangan strategiyalarni birlashtirib, boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilmoqda. Bu yondashuvlar nafaqat kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan 2022-yil 18-iyuldagi PQ-327-sonli qaror hamda 2021-yil 6-apreldagi PF-6199-sonli farmon





raqamli transformatsiya va xalqaro boshqaruv uslublarini milliy biznesga joriy etishni rag'batlantiruvchi muhim hujjatlardir. Ular orqali xalqaro investitsion hamkorlikni rivojlantirish, eksportni oshirish va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimlarini yo'lga qo'yish vazifalari belgilangan. Shunday ekan, xalqaro kompaniyalarning raqamli transformatsiya doirasidagi boshqaruv tajribasini o'rganish va milliy kompaniyalarda qo'llash mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda asosiy yo'nalishlardan biridir.

Usul (Metodologiya)

Ushbu tadqiqotda xalqaro kompaniyalar tomonidan global raqobat sharoitida qo'llanilayotgan boshqaruv uslublarining o'zgarishini chuqur o'rganish maqsadida ko'p komponentli metodologik yondashuv qo'llandi. Tadqiqotda nazariy-analitik, kontent tahlil, empirik kuzatuv hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili metodlari birgalikda ishlatildi.

Birinchidan, tadqiqot nazariy asos sifatida klassik va zamonaviy menejment nazariyalarini olgan. Jumladan, M. Porterning raqobat ustunligi konsepsiyasi, SWOT va PESTEL tahlillari, Bartlett va Ghoshalning transmilliy menejment modeli, Chan Kim va Mauborgne tomonidan ilgari surilgan Blue Ocean Strategy hamda strategik rejalashtirishga oid differensial, narx ustunligi va fokus strategiyalari tadqiqotning nazariy bazasini tashkil etdi. Ushbu yondashuvlar xalqaro kompaniyalarning raqamli transformatsiya sharoitida boshqaruv uslublarini qanday o'zgartirayotgani va yangi strategiyalarni qanday tanlayotganini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchidan, empirik tahlil usuli asosida so'nggi uch yil (2021–2024) davomida Apple, Toyota, Nestlé, Huawei, Unilever, McDonald's kabi yetakchi transmilliy kompaniyalarning yillik hisobotlari, korporativ strategiya bayonotlari va ESG hisobotlari batafsil tahlil qilindi. Ushbu tahlil orqali kompaniyalarning mintaqaviy strategiyalari, raqamli transformatsiyaga munosabati va innovatsiyalarni boshqarish uslublari o'rganildi.

Uchinchidan, xalqaro statistika va konsalting hisobotlari, xususan UNCTADning World Investment Report 2023, World Economic Forumning Global Competitiveness Report, shuningdek McKinsey, BCG va Deloitte kabi yetakchi kompaniyalarning tahlillari tadqiqot bazasiga kiritildi. Bu manbalar orqali global kompaniyalar orasida keng tarqalgan boshqaruv strategiyalari va ularning samaradorligi o'rganildi.

To'rtinchidan, O'zbekiston kontekstida milliy boshqaruv tizimini xalqaro standartlar va raqamli transformatsiya talablariga moslashtirish maqsadida Prezidentning 2022-yil 18-iyuldagi PQ–327-sonli qarori hamda 2021-yil 6-apreldagi





PF-6199-sonli farmoni asosida normativ-huquqiy tahlil amalga oshirildi. Ushbu hujjatlar milliy kompaniyalar uchun xalqaro boshqaruv uslublarini joriy etishning zaruriyati va istiqbollarini aniq belgilab berdi.

Tahlil (Muhokama)

Tadqiqot davomida tahlil qilingan xalqaro kompaniyalar faoliyati shuni ko'rsatdiki, global raqobat sharoitida muvaffaqiyat qozonayotgan korporatsiyalar boshqaruv uslublarini mahalliy muhitga moslashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirmoqda. Masalan, Apple kompaniyasi bir necha mintaqalarda yagona mahsulot va xizmatlar dizaynini qo'llash orqali global standartlashtirish strategiyasini amalga oshiradi, bu esa xarajatlarni qisqartirish va marketing samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Toyota esa lokal ehtiyojlarga mos avtomobillar ishlab chiqarib, moslashuvchan ishlab chiqarish modeli va yuqori sifat standarti orqali bozorda yetakchilik qilmoqda.

Nestlé kompaniyasi turli hududlar uchun individual marketing va mahsulot siyosatini ishlab chiqish orqali "lokalizatsiyalangan boshqaruv" strategiyasini tanlagan. Masalan, Islom davlatlarida "halol" mahsulotlar liniyasi, Osiyo mamlakatlarida kam sho'rli va kam yog'li mahsulotlar orqali mijoz ehtiyojlariga moslashtirilgan takliflar taqdim etmoqda. Ushbu kompaniyalar Porterningning farqlash va fokus strategiyalarini uyg'unlashtirib, o'z brend imijini mustahkamlashga erishmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya xalqaro kompaniyalar boshqaruvining ajralmas qismiga aylangan. Sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data), avtomatlashtirilgan yetkazib berish zanjirlari va mijozlar bilan interaktiv aloqalar kabi yechimlar kompaniyaning global bozordagi raqobatbardoshligini belgilaydi. Deloitte va McKinsey kompaniyalarining so'nggi yillik tahlillariga ko'ra, raqamli texnologiyalarga sarmoya kiritgan kompaniyalar 25–30 foizgacha tezroq o'sish sur'atlariga erishmoqda.

Shuningdek, global kompaniyalar ESG tamoyillariga asoslangan strategik boshqaruvga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda. Ekologik toza ishlab chiqarish, gender tenglik, ijtimoiy barqarorlik va energiya samaradorligi kabi mezonlar xalqaro bozorlarda ustuvor ahamiyatga ega. Unilever, IKEA, Tesla kabi kompaniyalar ushbu yo'nalishda ilg'or strategiyalarni ishlab chiqib, faoliyatlarini "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga moslashtirmoqda.

O'zbekiston korxonalarini esa xalqaro boshqaruv tajribalarini o'zlashtirish bosqichida turibdi. Milliy biznes sub'yektlari eksportga yo'naltirilgan, raqamli





texnologiyalarni faol qo‘llaydigan, moslashuvchan va ijtimoiy mas‘uliyatni inobatga olgan kompaniyalarga aylanishga intilmoqda.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, global raqobat muhitida faoliyat yuritayotgan xalqaro kompaniyalar boshqaruv uslublarini mukammal, moslashuvchan va o‘zgaruvchan tashqi sharoitlarga tez moslashadigan tizim asosida shakllantirmoqda. Muvaffaqiyatli kompaniyalar strategik boshqaruvda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash, innovatsion yondashuvni ustuvor qilish, ijtimoiy mas‘uliyatni birlamchi vazifa sifatida belgilash va korporativ madaniyatni global mezonlarga moslashtirish orqali jahon bozorlarida barqaror pozitsiyalarini saqlab qolmoqda. Differensial, fokus va global standartlashtirish strategiyalarining vaziyatga qarab uyg‘unlashtirilishi esa ularning muvaffaqiyat omillaridan biridir.

Shunday qilib, xalqaro kompaniyalar boshqaruv tajribasi — bu iqtisodiy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va institutsional yuksalishning kompleks namunasi bo‘lib, uni o‘rganish va tatbiq qilish O‘zbekiston biznes muhitini jahon talablariga moslashtirish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ–327-son, 18-iyul 2022-yil. “Xalqaro investitsion va menejment strategiyalarini joriy etish to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni PF–6199-son, 6-aprel 2021-yil. “Eksport salohiyatini oshirish va korxonalarda menejment salohiyatini kuchaytirish haqida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-yanvardagi PQ-410-sonli Qarori. Innovatsion rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash va xalqaro standartlarga mos boshqaruv tizimlarini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar. — Toshkent, 2024.
4. World Economic Forum. (2023). Global Competitiveness Report 2023.
5. Deloitte. (2023). Digital Transformation in Global Companies: Trends and Insights. Deloitte Insights.
6. McKinsey & Company. (2023). The State of Digital Transformation 2023. McKinsey Global Institute.
7. Porter, M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. — New York: Free Press, 1985. — 557 b.
8. Bartlett, C.A., Ghoshal, S. Managing Across Borders: The Transnational Solution. — Boston: Harvard Business School Press, 1989. — 378 b.





**TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO
BAHOLASH NATIJALARI ASOSIDA O‘QITUVCHILAR MALAKASINI
OSHIRISH ZARURATI**

Jumayev Sanjar Soatmumin o‘g‘Li

Telfon raqam; +998-95-800-90-60

Anotatsiya; Ushbu maqolada o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlarining (PISA, PIRLS, TIMSS) natijalari asosida o‘qituvchilarning malakasini oshirish zarurati yoritilgan. Tadqiqot davomida xalqaro baholash tizimlarining natijalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining ta‘limga oid rasmiy hujjatlari, shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida chuqur tahlil o‘tkazildi. Maqolada tanqidiy fikrlashning ta‘lim sifatiga ta‘siri, pedagogik faoliyatda innovatsion metodlardan foydalanish va malakali o‘qituvchining o‘quvchiga ko‘rsatadigan ijobiy ta‘siri ilmiy asosda yoritilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning doimiy ravishda malakasini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha metodik tayyorgarligini kuchaytirish xalqaro baholash natijalarini yaxshilashda asosiy omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar; Tanqidiy fikrlash, xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, ta‘lim sifati, innovatsion pedagogika, funksional savodxonlik, metodik tayyorgarlik, zamonaviy ta‘lim.

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi kunda ta‘lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish davlatlar va xalqaro ta‘lim tizimlarining ustuvor vazifalaridan biridir. Xalqaro baholash dasturlari – PISA, PIRLS va TIMSS o‘zaro taqqoslash imkoniyatlarini yaratib, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va tanqidiy fikrlash darajasini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Ushbu dasturlarning natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash salohiyatini samarali rivojlantirish uchun o‘qituvchilarning malakasini muntazam oshirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirish zarurati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim siyosatida ham o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va innovatsion metodlarni joriy etish ta‘lim sifatini yaxshilashning asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta‘lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha qarorlari va Vazirlar Mahkamasining farmonlari ta‘lim





jarayonida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchilarning roli va malakasini oshirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu bois, xalqaro baholash dasturlarida aniqlangan muammolar va kamchiliklar asosida o'qituvchilarni doimiy kasbiy rivojlantirish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish bugungi ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada xalqaro baholash natijalari tahlil qilinib, o'qituvchilar malakasini oshirishning ahamiyati va zarurati ilmiy jihatdan asoslanadi hamda amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

USUL (METHODS)

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi rasmiy hujjatlari asosida o'qituvchilarning malakasini oshirish zarurati tahlil qilindi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-iyundagi PQ-2907-sonli "O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning malakasini muntazam oshirish, innovatsion metodlarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu qarorda tanqidiy fikrlash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilanadi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-iyundagi 345-sonli "Umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" farmoni o'qituvchilarning kasbiy malakasini doimiy ravishda oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish va baholash tizimini takomillashtirish vazifalarini belgilaydi. Mazkur hujjatlar o'qituvchilarning tanqidiy fikrlash salohiyatini rivojlantirishda o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirishning muhimligini amaliy asoslaydi.

Tadqiqotda ushbu qaror va farmonlarning matnlari, shuningdek, xalqaro baholash dasturlari — PISA, PIRLS, TIMSS hisobotlari tahlil qilindi. Ushbu hujjatlar asosida O'zbekiston ta'lim tizimida o'qituvchilarning malakasini oshirish jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur strategiyalar aniqlanib, ularning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi roli o'rganildi.

NATIJARLAR (RESULTS)

O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosati va xalqaro baholash natijalari o'rganilganda, mamlakatimizda funksional savodxonlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha mavjud strategik hujjatlar va chora-tadbirlar milliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qilayotgani aniqlandi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida amaliy va interaktiv metodlarni keng joriy etish,





o'qituvchilarning malakasini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va baholash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali natijalar beradi.

Xalqaro baholash dasturlari — PISA, PIRLS va TIMSS hisobotlari o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalari va funksional savodxonlik darajalarida farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, O'zbekistonning so'nggi yillardagi natijalari xalqaro o'rta darajada bo'lib, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmagani haqida signal beradi. Ushbu ko'rsatkichlarning pastligi, asosan, o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlarini yetarlicha egallamasligi bilan bog'liq ekanligi aniqlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2907-sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 345-sonli farmoni doirasida amalga oshirilayotgan malaka oshirish dasturlari, pedagoglarning innovatsion usullarni o'zlashtirishiga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha yangi metodikalarni amaliyotga joriy qilishiga yordam bermoqda. Biroq, ushbu dasturlarni yanada kengaytirish va sifatini oshirish zarurati mavjudligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning malakasini doimiy ravishda oshirish jarayonida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish samarali bo'ladi:

- Tanqidiy fikrlash va analitik yondashuvlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish uchun pedagoglarni maxsus o'quv kurslari bilan ta'minlash.
- Xalqaro baholash standartlari va talablariga mos baholash vositalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish.
- Innovatsion va interfaol ta'lim texnologiyalarini keng qo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantirish.
- O'qituvchilarni malaka oshirish jarayonida nazorat va baholash tizimlarini takomillashtirish.

Natijada, o'qituvchilar malakasini oshirish ta'lim sifatini yaxshilash, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda xalqaro baholash natijalarini yaxshilashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil

Xalqaro baholash dasturlari natijalari va O'zbekiston ta'lim siyosatida belgilangan maqsadlar o'rtasida yaqqol bog'liqlik mavjud. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning malakasini oshirish tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu fikrni Dewey (1910) ning ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish haqidagi ta'lim falsafasi va Paul hamda Elder (2006) ning tanqidiy fikrlashni o'qitish metodologiyasi ham qo'llab-quvvatlaydi. Ularning





ta'kidlashicha, o'qituvchining malakasi va pedagogik mahorati o'quvchilarni mustaqil, ijodiy va analitik fikrlashga yo'naltirishda muhim omildir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2907-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 345-sonli farmoni pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, Xolmatov (2020) tadqiqotida ko'rsatilganidek, malaka oshirish dasturlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni yanada kengroq joriy etish zarur. Shu bilan birga, PISA natijalari bo'yicha o'quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasi pastligi, pedagoglarning ushbu sohada metodik jihatdan to'liq tayyor emasligini ko'rsatadi.

Bloom (1956) ta'lim maqsadlarini shakllantirishda yuqori darajadagi tafakkur faoliyatlari, jumladan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Shunday ekan, o'qituvchilarni doimiy malaka oshirish jarayonida ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy va nazariy bilimlarni chuqurlashtirish zarur.

Ta'limda funksional savodxonlik va tanqidiy fikrlashning birgalikda rivojlanishi o'quvchilarning hayotdagi muammolarni mustaqil va samarali hal etish qobiliyatini oshiradi. UNESCO (2017) ham ta'lim sifatini oshirishda malakali o'qituvchilar va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi pedagogik yondashuvlarning o'rnini katta ekanligini ta'kidlaydi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston ta'lim tizimida o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimini xalqaro standartlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish lozimligi aniqlandi. Bu esa nafaqat tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga, balki ta'lim sifatining umumiy ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib ayatdigan bo'lsak Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlari natijalari tahlil qilinib, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qituvchilarning malakasini oshirish zarurati ilmiy asosda ko'rsatildi. PISA, PIRLS va TIMSS kabi xalqaro dasturlar natijalari o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlarni egallashlari va doimiy malaka oshirishlari o'quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasiga bevosita ta'sir qilishini isbotladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi qarorlari, jumladan PQ-2907-sonli qaror va 345-sonli farmon, o'qituvchilar malakasini oshirishni ta'lim tizimining ustuvor vazifasi sifatida belgilaydi va bu yo'nalishda amaliy chora-tadbirlarni joriy etishni taqozo etadi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va xalqaro ekspertlarning fikrlariga ko'ra, malakali va innovatsion pedagog





kadrlar tayyorlash o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil natijalari o'qituvchilarning malakasini oshirish jarayonini yanada samarali qilish uchun yangi pedagogik metodlar, innovatsion texnologiyalar, shuningdek, xalqaro baholash standartlariga mos baholash vositalarini ishlab chiqish va qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarni zamonaviy hayotga tayyorlashda muhim shartdir.

Kelgusida O'zbekiston ta'lim tizimida o'qituvchilar malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish, malaka oshirish dasturlarini kengaytirish va pedagoglarni tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha doimiy nazorat qilishga alohida e'tibor qaratish zarur. Shu tariqa, ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish samaradorligi oshib, milliy ta'lim tizimining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-iyundagi 345-sonli qarori. Umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2907-sonli qarori. (2017). O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning PQ-2907-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti.
4. Piaget J. The Origins of Intelligence in Children. – New York: International Universities Press, 1952.
5. Dewey, J. (1910). How We Think. Boston: D.C. Heath & Co.
6. Paul, R., & Elder, L. (2006). Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Pearson.
7. Xolmatov, Z. (2020). Innovatsion pedagogik texnologiyalar va tanqidiy fikrlash. Ta'lim va Innovatsiyalar, 3(2), 45-52.





Raxmanova I.M.

Buxoro davlat universiteti

Musiqqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'p asrlik an'anaviy musiqqa ijodining serqatlamligi, marosim, urf-odat, turli hodisa va tadbirlar bilan bevosita bog'langan folklor, xalq ijodi, og'zaki an'anadagi professional musiqqa yo'llari, An'naviy musiqqa ijodining tarixiy ko'rinishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: musiqqa, an'ana, ijrochilik, milliy qadriyat.

O'zbek xalqining musiqqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqqa, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo'lgan e'tibor davlat miqyosiga ko'tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq otabobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boylklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada o'tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

“Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning davlatimiz ziyolilari bilan uchirashuvida: madaniyatimiz va san'atimizni rivojlanish hamda bu boradagi ijobiy tendensiyalar bilan birga, ayrim salbiy holatlar, ularning jamiyat hayotidagi ta'sirini xolisona va tanqidiy baholab, o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish. Ijodiy uyushmalar, Madaniyat vazirligi hamda uning tarkibidagi birlashma va tashkilotlar faoliyatini chuqur tahlil etib, ijodkor ziyolilarning bugungi kunda jamiyat hayoti, islohotlar jarayonidagi o'rni va vazifasini oshirish deb ta'kidlab o'tdilar.





Tarixdan ma'lum, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy qo'shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq va musiqa ularga hamroh bo'lgan.

Zero, bugungi muborak mustaqillikka erishgan kunimizda, o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan, otabobolarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san'ati milliy musiqa san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an'anaviy ruhdagi qo'shiqlari o'lmas meros bo'lib, barcha davrlardagidek bugun ham «labbay» deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo'shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo'lmish musiqiy sanhat bilan shug'ullanayotgan barcha mutaxassis va sanhatkorlarga muhim vazifa qilib qo'yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va tasavvurida o'zgarishlar paydo bo'ldi.

Musiqiy madaniyat o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o'zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham tushgani yo'q. U xalq ijodining yuksak namunalari, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg'u va ashula asarlari, dostonlar ijrochiligi hamda murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom musiqasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o'zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo'shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o'rin tutadi.

Urf-odat, marosim va bayramlar tarkibiga mehmondo'stlik an'analari, axloq-odob bilan bog'liq urf-odatlar, farzand tarbiyasi bilan bog'liq marosimlar, beshik to'yi, ism qo'yish marosimi, sunnat to'yi, sovchilikka borish, kelin salom, milliy va mahalliy miqyosda o'tkaziladigan sayllar, hasharlar, tomoshalar, bayramlar va boshqalarni kiritish mumkin.





MAROSIM inson hayotida muhim hodisalar sodir bo'lganida vujudga keladi va kishilar hayotidagi eng muhim voqyealarni (masalan, tug'ilish, uylanish, o'lim) qayd etadi, rasmiylashtiradi. O'zbek oilalarida yosh oilalarni tarbiyalash uchun o'ziga xos ma'naviy "zina" sifatida xizmat etadigan, chaqaloq tug'ilgandan, to'ulg'ayib, yangi oila qurgungacha bo'lgan hayotiy muhim voqyealarni qayd qiladigan marosimlar tizimi ("Chaqaloq dunyoga kelishi", "Ism berish", "Chaqaloq chilla", "Beshik to'y", "Soch to'y", "Tish to'y", Birinchi qadam", "Sunnat to'y", "Muchal yosh", "Nikoh to'y" kabilar) vujudga kelgan.

BESHİK TO'YI - o'zbeklar oilasida to'ng'ich farzand tug'ilishi sharafiga o'tkaziladigan tantanali marosim hisoblanadi. Bu udum O'zbekiston viloyatlarida o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Beshik bilan bog'liq turli xil urf-odatlar bor. Masalan, beshikni hych qachon ikki kishi ikki tomonidan ko'tarmaydi, uni faqat bir kishi ko'tarishi lozim. Beshik doimo toza joyda saqlanadi. Undan foydalanilmaganda ham asbob-anjomlari bilan yig'ib toza joyga qo'yib qo'yiladi. Oilada tug'ilgan keyingi farzandlarning hammasi ana shu beshikdan foydalanadi, ya'ni oilada tug'ilgan keyingi farzandga boshqa yangi beshik olinmaydi. Chaqaloqning yaqinlari davrasida beshikka solish xalq tilida "beshik to'yi" marosimi ham deyiladi. Bu udum O'zbekistonning turli hududlarda turlicha tartibda o'tkaziladi. Odatda beshik to'ng'ich farzandga qizning ota-onasi tomonidan beriladi. Marosim oilaviy marosim shaklida o'tkaziladi. Unda kelin va kuyov tomoning eng yaqin qarindoshlari qatnashadi va yoshi ulug' momolar yosh onaga bolani beshikka solish (belash) tartibini o'rgatishadi.

Boychechak marosimi – turkiy xalqlarda ko'klam kelishi bilan bahorning ilk guli – boychechak chiqqanligi munosabati bilan o'tkaziladi. Bahor bilan bog'liq «Lola», «Gul» kabi ko'plab sayillarning ibtidosida «Boychechak» marosimi turadi. Boychechak sayli qish qahratonidan omon chiqqan xalqning shukronalik bayrami hamdir. Qadimda bu marosim qish va ko'klamning kurashini ifodalagan. Bunday marosim va bayramlar tog' bag'rida, qiradirlarda, bog'larda o'tkazilgan. Marosim yerli xalq hayotida muhim sanalgan va unga maxsus tayyorgarlik ko'rilgan. Boychechak sayli dastlab kattalar va bolalar ishtirokida o'tkazilgan. Hozirgi kunda faqat bolalar tomonidan nishonlanadi. Bolalar guruh-guruh bo'lib qishloq yaqinidagi qir-adirlardan boychechak terib kelishadi. Bunda guruhlar o'rtasida raqobat ham kechishi mumkin. Qaysi guruh qishloqqa birinchi bo'lib boychechak keltirsa eng ko'p sovg'a-salomlar ularga beriladi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1.Ergashev, O. (2004). O'zbek musiqasi va uning tanqidi. Toshkent: Sharq nashrlari.

2.Baxromov, F. (2015). Musiqiy tanqid va uning rivojlanishi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

3.Shamsiyev, B. (2013). O'zbek klassik musiqasining tanqidi. Toshkent: Musiqa nashriyoti.

4.Sultonov, B. (2009). Musiqiy tanqid va musiqashunoslik: O'zbek musiqiy madaniyati. Toshkent: Fan.

5.Qodirov, Sh. (2011). O'zbekiston musiqasi va uning bugungi kunda tanqidi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi nashriyoti.





HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA YOSHLARNING IJTIMOIY ROLINI OSHIRISH

SUBANOV Olimjon Suyarkul o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrası
katta o'qituvchisi, dotsent (+99893) 551-71-30

Annotasiya. Mazkur maqolada ichki ishlar organlari kadrlarining salohiyatini oshirishda huquqiy asoslarning, xususan, Kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Kodeksning xizmat intizomi, ma'naviy tarbiya va korrupsiyaga qarshi kurashdagi roli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ichki ishlar organlari, kadrlar salohiyati, xizmat intizomi, kasbiy madaniyat, Kodeks, huquqiy asoslar, islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurash, xizmatga yaroqlilik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ichki ishlar xodimi, xizmat tartibi, normativ-huquqiy hujjat.

ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ РОЛИ МОЛОДЕЖИ В ФОРМИРОВАНИИ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В статье рассматриваются роль и значение правовых основ, в частности Кодекса профессиональной культуры и служебной дисциплины, в повышении квалификации сотрудников органов внутренних дел. Анализируется роль Кодекса в формировании служебной дисциплины, морально-нравственном воспитании и борьбе с коррупцией.

Ключевые слова: органы внутренних дел, кадровый потенциал, служебная дисциплина, профессиональная культура, Кодекс, правовые основы, реформы, борьба с коррупцией, годность к службе, морально-нравственное воспитание, сотрудник органов внутренних дел, порядок прохождения службы, нормативный правовой акт.

INCREASING THE SOCIAL ROLE OF YOUTH IN THE FORMATION OF LEGAL CULTURE

Annotation. The article examines the role and importance of legal frameworks, in particular the Code of Professional Culture and Service Discipline, in improving the





qualifications of employees of internal affairs bodies. The role of the Code in the formation of service discipline, moral and ethical education and the fight against corruption is analyzed.

Key words: internal affairs bodies, personnel potential, service discipline, professional culture, Code, legal framework, reforms, the fight against corruption, fitness for service, moral and ethical education, employee of internal affairs bodies, the procedure for passing service, regulatory legal act.

Yangi O‘zbekistonning istiqboli, uning kelgusidagi rivoji va taqdiri jamiyat a‘zolari, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ijtimoiy ongda huquqiy qadriyatlarni qaror toptirish, qonun ustuvorligini ta‘minlash va qonuniylikni mustahkamlashga bog‘liq. Jumladan, referendum yo‘li bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda Oila, bolalar va yoshlarga oid alohida bobning kiritilgani ham masalaning mohiyati va ko‘lami naqadar kengligini anglatadi.

Shuningdek, Konstitutsiyamizning 77-moddasida “Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta‘lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majbur...” ekanligi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy normaning mustahkamlangani yoshlar tarbiyasi uchun mas‘ul shaxslar kategoriyasi va ularning majburiyatini asosiy qonunimizda aniq mustakamlab qo‘yyayotgani ham fikrimizning dalilidir.

Konstitutsiyamizning 79-moddasida esa “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoyaqilinishini ta‘minlaydi, ularning jamiyat va davlat hatida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta‘lim olishiga, sog‘ligini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”⁴⁸ deya konstitutsiyaviy darajada belgilanishi mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining naqadar dolzarbligini ko‘rsatadi. Shu bois yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalasiga kompleks tarzda yondashish, unda davlat organlari bilan birga nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ijtimoiy sherikligini uyg‘un ravishda amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifa sanaladi.

Agar mamlakatimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etishini insobatga olsak, masalaning ustuvor ahamiyat kasb etishi ma‘lum bo‘ladi. Ya‘ni, yurt taraqqiyoti uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, huquqiy madaniyati yuksak yoshlarni tarbiyalashning samarali tizimini yaratish strategik vazifa sanaladi.





Prezident Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: «Qonunlarga hurmat odamlarimizning huquqiy ongi va madaniyati asosida shakllanadi. Ya'ni, ayrim kishilar jazodan qo'rqib qonunga itoat etsa, boshqalar bolalikda olgan tarbiyasiga ko'ra qonunni hurmat qiladi. Shu bois, birinchi navbatda, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida huquqiy tarbiyani keng yo'lga qo'yishimiz lozim»⁴⁹.

Tabiiyki, yuqoridagi fikrlar yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga yo'naltirilgan faoliyatimizda ham dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, "...yoshlar o'rtasida huquqiy niglizm holatlarini bartaraf qilish, ularda huquqbuzarliklarning jamiyat vadavlat taraqqiyoti uchun salbiy illat ekanligiga oid dunyoqarash shakllanishini targ'ib qilishga qaratilgan kompleks targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish"⁵⁰ga ham bevosita nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Zero, huquqiy tarbiya va axloqiy, madaniy saviya barkamol yoshlar ma'naviyatining uzviy tarkibiy qismi sanaladi.

Mamlakatimizda 2022-2026 yillarga mo'ljallab amalga oshirilayotgan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining maqsadi inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishdan iboratdir. Binobarin, olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish ham asosiy maqsad hisoblanadi. Bu taraqqiyot strategiyasining 70-maqsadida Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish⁵¹ sifatida belgilangani ham bejiz emas.

Huquqiy madaniyat muayyan jamoada yashovchi odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksakligi darajasi, yuridik normalar va yuridik faoliyat (huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash, huquqni muhofaza qilish faoliyati)ning yuksalish darajasi bilan belgilanadi. Uning negizini huquq haqidagi bilimlar va uning talqinlari, shuningdek, unga muvofiq bo'lgan sa'y-harakatlar tashkil etadiki, bularning barchasi jamiyatda fuqarolar huquqiy madaniyati darajasi bilan bevosita bog'liq.

Huquqiy madaniyat bu har bir jamiyatda huquqning ijtimoiy qadriyat sifatida mavjud bo'lishi va rivojlanishida ifodalanadigan huquqiy ong va qonuniylik hamda yuridik amaliyotning real ahvoli, qonunchilikning sifatdarajasi bo'lib, u mazkur jamiyatning o'ziga xos yuridik boyligi ham sanaladi. Aynan shu bois aholi, ayniqsa muhim ijtimoiy qatlam sanalmish yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish vazifasi davlat va jamiyatimizning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashni talab





etadi. Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish vazifasining dolzarbligi yoshlarning har bir yangi avlodi oldingi ajdodlar tajribasini o'rganib, yangi ijtimoiy munosabatlarni anglashi, ularga moslashish va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishga intilishi bilan izohlanadi. Bu holat esa o'z navbatida, huquqiy madaniyatni shakllantirishning yangi usul, shakl va vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Madaniyat — insoniyat tarixida uning ma'naviy jabhasini tashkil etuvchi muhim omildir. Madaniyat tushunchasi o'zida falsafiy, tarixiy, etnografik, psixologik, sotsiologik va boshqa yo'nalishlarni mujassam etgan va u mazkur soha vakillarining e'tiborini o'ziga tortib kelgan. O'zbek tilining izohli lug'atida:

«1. Madaniyat (arab. sivilizatsiya) — jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui.

2. Biror ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqlari darajasi.

3. O'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifat.

4. Madaniyatli shaxs talablariga javob beruvchi sharoit», deb ta'rif beriladi[1].

O'zbekiston milliy ensiklopediyasiga ko'ra: «Madaniyat jamiyat, inson, ijodiy kuch va qobiliyatlari, tarixiy taraqqiyotning muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. «Madaniyat» tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat) konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yokiturmushining o'ziga xos sohalari (masalan, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo'llaniladi. Tor ma'noda «madaniyat» atamasi kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi. «Madaniyat» arab tilidagi «madina» — shahar so'zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini badaviy yoki sahroi turmush; ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik — ko'chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik — shaharda o'troq holda yashab, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan.

Yevropada «madaniyat» deyilganda, dastlab insonning tabiatga ko'rsatadigan maqsadga muvofiq ta'siri, shuningdek, insonga ta'lim-tarbiya berish tushunilgan (lot. «cultura» — yerni ishlash, parvarishlash; ruschadagi «kultura» so'zi ham shundan olingan). Madaniyat faqat mavjud norma va urf-odatlariga rioya qilish istagini rag'batlantirishni ham o'z ichiga olgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, «madaniyat» keng ma'noda inson aqlzakovati va faoliyatining mahsuli hisoblanadi. Hozirgi kungacha «madaniyat» tushunchasiga mutaxassislar tomonidan berilgan yuzlab ta'riflarga asoslanib biz uning quyidagi





umumiy xarakterli belgilarini qayd etamiz: birinchidan, eng muhimi madaniyatda jamiyatdagi insonning ko'p qirrali mehnat faoliyati o'z aksini topgan bo'ladi; ikkinchidan, madaniyat o'zida inson faoliyatining jamiyatdagi imkoniyati natijalarini aks ettiradi; uchinchidan, madaniyatning mohiyatan insonparvar, yaratuvchanlik va umuminsoniy qadriyatlarni birlashtirish kabi xususiyatlari har bir insonga, butun jamiyatga xosligi bois ahamiyatlidir.

Bizningcha, madaniyat insonning dunyoga, jamiyatga hamda o'ziga munosabatlarining keng sohasini: savod chiqarish va oddiy axloq me'yorlariga rioya etishidan boshlab, u yuksak ma'naviy qadriyatlardan bahramand bo'lish darajasiga qadar masofani qamrab oladi. Ma'lumki, umumiy madaniylik va o'qimishlilikdagi kamchiliklar yoshlarning huquqiy va siyosiy ongiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarda jamiyat huquqiytizimiga bo'lgan qiziqishning sustligi ularda huquqiy madaniyatining past bo'lishiga olib keladi. Mazkur holatni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman madaniyat haqida fikr yuritganimizga sabab uning, ya'ni huquqiy madaniyatning rivojlanishidagi yetakchilik rolini ilmiy-nazariy asoslashdan iborat.

Huquqiy davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muayyan huquqiy ong va madaniyatga ega bo'lgan yoshlarga ehtiyoj mavjud. Biroq, huquqiy madaniyat o'z-o'zidan vujudga kelib qolmaydi, uni yoshlarimizda erta bolalikdan boshlab ijtimoiy institutlar yordamida shakllantirish zarur.

Shuning uchun huquqiy tarbiyani Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev e'tirof etganidek: "...maktabgacha ta'lim tizimidan boshlashimiz, bu boradagi ilk ko'nikmalar ona allasi kabi farzandlarimiz qalbidan umrbod joy olishi zarur" [2].

O'spirin yoshlarning aksariyati o'z konstitutsiyaviy huquqlarini ma'lum darajada biladi. Biroq, konstitutsiyaviy burchlariga kelganda, ahvol ancha salbiy. Bu jamoatchilik fikrini o'rganish «Ijtimoiy fikr» markazi bilan 2015 yil sentabr oyida noyuridik yo'nalishdagi o'rta maxsus kasbhunar ta'limi tizimi muassasalari o'quvchi yoshlari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot jarayonida aniqlandi.

O'quvchi yoshlarga «Sizning qanday konstitutsiyaviy huquqlaringiz mavjud?» degan savol berilganda, respondentlarning faqat 52,3 foizi ijobiy javob berishdi. Jumladan, respondentlarning 45,0 foizi ta'lim olish; 28,6 foizi so'z erkinligi; 26,7 foizi kasb tanlash va mehnat qilish; 14,5 foizi dam olish; 13,3 foizi sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish; 10,1 saylovlarda qatnashish huquqlarim bor, deb javob berishgan. «Sizning qanday konstitutsiyaviy burchlaringiz bor?», degan savolga so'ralganlarning 14,1 foizi qonunlargaitoat etish; 10,3 foizi ta'lim olish; 9,5 foizi ota-onaga ko'maklashish; 5,9 foizi soliqlarni o'z vaqtida to'lash; 5 foizi tarixiy yodgorliklarni





asrash; 2,5 foizi bolalar tarbiyasi, oila qurish va uni ta'minlash, degan javoblarni berishdi. Sotsiologik so'rov davomida o'quvchi yoshlar o'zlarining konstitutsiyaviy huquqlarini konstitutsiyaviy burchlariga nisbatan yaxshiroq bilishi ma'lum bo'ldi. O'quvchi yoshlarning huquq va burchlarini teng anglamasligiga huquqiy ta'lim, huquqiy tarbiya hamda huquqiy targ'ibotning innovatsion zamonaviy, ta'sirchan uslublari hamda ilmiy-nazariy asoslarining yaratilmaganligi sabab bo'lgan.

Ijtimoiy madaniyatning muhim yo'nalishi sanalmish huquqiy madaniyat ham tadqiqotchilar uchun muhim izlanish ob'ektiga aylandi. Xususan, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab huquqiy madaniyat ilmiy jamoatchilik, huquqshunoslar tomonidan nazariy jihatdan e'tirof etila boshlandi. Huquqiy madaniyat insonning huquq, jamiyat va davlatga bo'lgan munosabati hamda jamiyat va davlatning har bir insonga, uning huquq va manfaatlariga bo'lgan munosabati bilan mohiyatan aloqador sanaladi.

Huquqiy madaniyat huquqiy tizim yuksalishining o'lchovi bo'lib, ayni vaqtda, ijtimoiy, huquqiy va siyosiy institutlarning xalqchilligi, aholining savodxonlik darajasi, huquqiy ongi hamda jamiyatdagi huquqiy mafkura bilan o'zaro bog'liq.

Mustaqilligimizning dastlabki davrida huquqiy madaniyat masalasi quyidagicha ta'riflandi: «Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. Shu bilan birga, huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalardaijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar odamlarongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ro'yobga chiqadi». Faqat qonunlarga asoslangan va ma'rifiy oqilona boshqaruv orqaligina huquq hamda erkinliklari yuridik kafolatlangan, yuqori huquqiy maqomga ega huquqiy faol shaxsni tarbiyalash mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev huquqiy madaniyatning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi: «... qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi». Binobarin, huquqiy madaniyatning zaruriyati davlatimizning strategik maqsadi bo'lgan huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish bilan bevosita bog'liq.

Huquqiy madaniyat bo'yicha shug'ullangan olimlar: «Huquqiy madaniyat xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va iymon, adolat va qonuniylik, insonga yuksak hurmat va e'tibor, sabr-toqat kabi ma'rifat va haqiqat tuyg'ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi.





Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo‘lida fidokorona mehnat qilishga yo‘naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruriyatdir»⁵⁶, deb qayd etishgan. Mazkur fikrdan ma‘lum bo‘ladiki, huquqiy madaniyat faqat tor va formal yuridik tushuncha emas. Huquqiy madaniyat jamiyatimizda mavjud milliy qadriyatlar, ma‘naviyat kabi ustuvor tushunchalar bilan bevosita bog‘liqligi bois ham uni yuksaltirish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan sanaladi.

Huquqiy madaniyat — shaxs va jamiyatning huquqiy faoliyat sohasida erishgan ijobiy darajalari holatini xarakterlovchi hamda sub‘ektning yuridik normalarga nisbatan huquqiy ongi va darajasining yuksalishi, shuningdek, davlat yoki fuqarolik jamiyati tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklari ta‘minlanishining kafolatlanganligini anglatuvchi ijtimoiy hodisadir. Huquqiy madaniyat jamiyatning ijtimoiy-huquqiy ongi va huquqiy faolligi hamda qonunchilik yuridik faoliyatning rivojlanganlik darajasi kabi tarkibiy qismlardan iborat. Jamiyat huquqiy madaniyati aholining huquqiy ongi qay darajada shakllanganligiga bevosita bog‘liq.

Jamiyat huquqiy madaniyati uning huquqiy ong darajasi, huquqiy institutlar faoliyatining samaradorligi, mamlakatda qonunchilik holati va rivojlanganlik darajasi hamda xalqaro va milliy huquq normalarining o‘zaro nisbati kabi belgilar bilan tavsiflanadi. Shaxsning huquqiy madaniyati — bu huquqni tushunish, idrok etish va uni qo‘llashni anglatadi. Shaxsning huquqiy madaniyati huquqiy ong bilan uzviy aloqador bo‘lib, bevosita unga tayanadi. Shaxs huquqiy madaniyatining asosiy elementlari tarkibiga: individning huquqiy ongi; shaxsning huquqqa itoatkorlik va unga bo‘ysunish xulq-atvori; shaxsning huquqiy faolligi kabilar kiradi. Huquqiy madaniyatning tahlili qonun chiqaruvchi organ, huquqni qo‘llovchi sub‘ektlar orqali, fuqaro va jamiyatning huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsadini amalga oshirishda insonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy ehtiyojlari, huquq va erkinliklarini ta‘minlashda huquqiy qadriyatlarni anglash, idrok etish hamda tushunish uchun zarur bo‘ladi.

Xulosa: Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyati qurilishi yo‘lida hal qiluvchi omildir. Konstitutsiyaviy islohotlarda yoshlarga alohida e‘tibor qaratilishi, ularning huquq va manfaatlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanganini tasdiqlaydi. Huquqiy madaniyatning shakllanishi esa faqat ta‘lim tizimi yoki jazodan qo‘rqitish orqali emas, balki erta yoshdan boshlab ongli tarzda huquqiy tarbiya, ijtimoiy institutlarning faol hamkorligi, milliy qadriyatlar asosida yuritiladigan targ‘ibot ishlari orqali amalga oshirilishi lozim.





Bugungi globallashuv va islohotlar sharoitida yoshlar ongida huquqiy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati, qonuniylikka hurmat singari tushunchalarni chuqur singdirish zarurati dolzarb bo'lib bormoqda. Huquqiy madaniyat – bu shaxsning huquqiy ongi, huquqqa hurmat va faol fuqarolik pozitsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Mazkur yo'nalishdagi ishlar nafaqat davlat organlari, balki butun jamiyat zimmasidagi umumiy va uzluksiz vazifa sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.P. — T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2006. — 521-b..
2. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi — huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2019-yil 8-dekabr.





Mahmudov Farhod Baxodir og'li

Student of TerDMAU

Email: farxodmaxmudov@gmail.com

Phone number: +998 93 215 53 06

Abstract: This article discusses the role of feed in poultry farming and its effects on the poultry organism. In modern poultry farming, preparing a proper and balanced feed ration is an important factor in achieving high productivity, maintaining poultry health, and increasing economic efficiency.

Keywords: Poultry farming, feed, feeding, biological additives, productivity, poultry health, rational nutrition, protein, vitamins, growth rate, feed quality, animal husbandry, economic efficiency.

Poultry farming today is one of the fastest-growing and highly economically efficient sectors worldwide. This field plays an important role in meeting the population's demand for meat and eggs, producing healthy food products, and increasing export potential. The successful management of poultry farming depends on many factors, among which the issue of feed takes a leading place. All vital processes of an animal's body – growth, development, productivity, and resistance to diseases – directly depend on the quality and balance of nutrition. Proper and rational feeding of poultry is of decisive importance for their healthy growth, improvement of product quality, and the overall efficiency of the farm. Today, in poultry farms, biological active feed additives, mineral complexes, and vitamins are widely used to formulate new types of feed. This article provides a comprehensive analysis of the role of feed in poultry farming, its impact on physiological processes, and directions of practical application.





The importance of feeding in poultry

Poultry, especially chickens, due to their biological characteristics, require a high level of energy and balanced nutrition. Their rapid growth, the activity of the egg-laying cycle, and overall health condition are entirely dependent on the quality of feed. Improper or unbalanced feeding of poultry can result in various metabolic disorders, weakened immunity, reduced productivity, and the spread of diseases.

Composition and types of feed

Feed intended for poultry consists of the following main components:

Proteins – play an important role in the formation of tissues and muscles. They are mainly obtained from soybean meal, fish meal, and meat-and-bone meal.

Carbohydrates – serve as the primary source of energy. Grain products such as wheat, barley, and corn are the main sources.

Fats – provide energy and assist in the absorption of certain vitamins in the body.

Vitamins – vitamins A, D, E, and the B group are essential for growth and egg production.

Minerals – calcium, phosphorus, sodium, magnesium, etc., are necessary for the skeletal system and the formation of eggshells.

Modern feeding technologies

In modern poultry farming, large farms use automated systems for feeding systems. Also, special combined feeds (combiem) with the addition of biologically active substances - prebiotics, probiotics, enzymes are widely used. These feeds, with their composition, fully satisfy the needs of the body and serve to sharply increase productivity.

Economic aspects of feeding

Rational feeding optimizes the amount of feed consumed per head of poultry, reduces waste and reduces the cost of the product. As a result, farm profitability





increases. In particular, the use of local feed sources reduces the need for imported products and expands the possibility of using domestic resources.

CONCLUSION

It is impossible to achieve high productivity in poultry farming without a properly organized feeding system. The quality, balance and biological completeness of feeds directly affect the growth rate, product quality and general health of poultry. Modern feeds and their correct combination allow to increase poultry efficiency, obtain economic benefits and produce environmentally friendly products. Therefore, scientific approaches and practical experiences in this area are of great importance for veterinary and poultry specialists.

LITERATURE USED

1. Gafurov A., Qodirov H. Fundamentals of poultry farming. – Tashkent: Uzbekistan, 2015. – 240 p.
2. Khodzhiev A.Kh. Biology of agricultural animals and poultry farming. – Tashkent: Mehnat, 2018. – 312 p.
3. Mahmudov Sh.M. Production of poultry products.
4. Karimov I., Sodiqov A. Poultry farming on farms. – Tashkent: Science and Technology, 2017. – 156 p
5. Berezovsky N.D., Reznikova T.V. Poultry Farming. – Moscow: KolosS, 2016. – 280p.
6. Tugai S.I., Kravchenko I.S. Technology of Poultry Production. – Kiev: Vyscha Shkola, 2017. – 265 p.
7. Vasilyev A.A. Poultry Farming Workshop. – Moscow: Agropromizdat, 2019. – 210p.
8. North M.O., Bell D.D. Commercial Chicken Production Manual. – New York: Springer, 2014. – 478 p.





ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК.

Исмоилов Ботир Мухаммедович

Преподаватель Кокандского университета

ismoilovbotirjon3@gmail.com

Аннотация: В статье подробно исследованы факторы, влияющие на развитие государственных закупок, в частности инвестиции и инновации, а также экономические факторы. В данной работе рассматривается воздействие социальных, правовых и политических факторов на государственные закупки. В статье проанализированы труды зарубежных и отечественных учёных, подробно изучены их положения и выводы, относящиеся к рассматриваемой теме.

Ключевые слова: государственные закупки, инвестиции, инновации, экономический рост, политическая стабильность, социальные факторы, государственный бюджет.

Введение. Государственные закупки играют важную роль в экономике и имеют существенное значение для обеспечения экономического развития страны, её конкурентоспособности и социальной стабильности. Инновации и инвестиции являются двумя ключевыми факторами в развитии государственных закупок. Их правильное использование может способствовать укреплению национальной экономики, созданию новых рабочих мест и техническому прогрессу. В статье предпринята попытка проанализировать роль инноваций и инвестиций в развитии государственных закупок. Государственные закупки включают процесс приобретения государством товаров, выполнения работ и оказания услуг. Эти процессы осуществляются через государственный бюджет и отражают влияние государства на экономику. Государственные закупки, несомненно, являются одним из важнейших факторов стимулирования экономического роста. Они способствуют развитию инфраструктуры, образования, здравоохранения и законодательства. Влияние инноваций на государственные закупки велико. Благодаря внедрению новшеств система государственных закупок становится более эффективной и прозрачной. Применение инноваций в процессе государственных закупок позволяет





повысить конкуренцию, улучшить цену и качество закупок. Кроме того, новые технологии помогают автоматизировать и осуществлять мониторинг государственных закупок, что снижает бюрократию и уровень коррупции. Инвестиции имеют важное значение для повышения эффективности государственных закупок и стимулирования экономического развития страны. Привлечение инвестиций из частного сектора способствует увеличению конкуренции в государственных закупках и повышению эффективности экономической деятельности. Вложение инвестиций в инновации и производство позволяет создавать новые рабочие места и поддерживать экономический рост. Для внедрения инноваций и инвестиций в систему государственных закупок необходимо предпринять ряд важных шагов. Во-первых, требуется автоматизировать и цифровизировать процесс государственных закупок. Это обеспечит возможность государственным органам контролировать и уточнять закупочные процессы. Во-вторых, необходимо создавать условия для привлечения инвестиций и инноваций через расширение сотрудничества с частным сектором. Кроме того, следует укрепить лучшие условия, организационную систему и политику в отношении инноваций и инвестиций.

Анализ литературы. Научные исследования о влиянии государственных закупок на экономику направлены на определение спроса государства на товары и услуги, стимулирование экономической активности и повышение конкуренции. В исследовании под названием «Государственные закупки и экономическое развитие» (Исмоилова, 2023) внимание уделено влиянию государственных закупок на экономический рост, а также эффективности инфраструктуры и социальных программ. Государственные закупки рассматриваются не только как инструмент управления государственным бюджетом, но и как важный фактор в сфере производства. Ряд исследований, например, проведённых Ким (2019) и Тейлором (2021), представили множество данных о влиянии государственных закупок на обеспечение активной конкуренции и поддержку местных производителей. Инновации играют важную роль в системе государственных закупок. В частности, внедрение технологических новшеств позволяет автоматизировать процесс государственных закупок, сделать его более прозрачным и повысить эффективность. В исследовании «Инновации и государственные закупки» (Шарифова, 2022) обсуждается влияние инновационных технологий на систему государственных закупок. В работе подчёркивается, что применение цифровизации, блокчейн- и технологий искусственного интеллекта в





государственных закупках позволяет сократить бюрократию и противодействовать коррупции.

А. Беннетт (2020) и М. Розен (2021) исследовали экономическую эффективность внедрения инноваций в государственные закупки и их социальное воздействие. Они подчеркнули, что инновационные подходы в процессе государственных закупок позволяют повысить конкуренцию, улучшить качество товаров и услуг, а также обеспечить правильную оценку стоимости закупок. Привлечение инвестиций рассматривается как важный аспект повышения эффективности и конкурентоспособности системы государственных закупок. В ряде исследований изучался вопрос влияния инвестиций на государственные закупки. В исследовании на тему «Инвестиции и экономический рост» (Курбонов, 2022) показано, что привлечение инвестиций играет важную роль в создании новых производственных возможностей, организации рабочих мест и укреплении экономики страны. Исследования демонстрируют, что привлечение новых инвестиций через государственные закупки в первую очередь способствует развитию инфраструктуры, удовлетворению социальных потребностей населения и стимулированию конкуренции. Особое внимание уделяется созданию необходимых условий для привлечения инвестиций и инноваций. Кроме того, через расширение сотрудничества с частным сектором создаются условия для прямого участия инвестиций и инноваций во многих проектах государственных закупок. Экономическое и социальное значение внедрения инноваций и инвестиций в систему государственных закупок является высоким. В исследовании «Внедрение инвестиций в систему государственных закупок: проблемы и решения» (Алиев, 2021) представлены методы интеграции инноваций и инвестиций в государственные закупки, их влияние на экономическое развитие и вклад в местную экономику. Исследования также показывают, что влияние инвестиций на государственные закупки может способствовать повышению глобальной экономической конкурентоспособности страны, а также создавать возможности для расширения производственного потенциала местных производителей.

Методология исследования. Для более глубокого изучения темы исследования были рассмотрены научные труды ряда зарубежных и отечественных учёных и исследователей. В процессе проведения данного исследования широко использовались теоретический анализ, метод сравнения, сравнительный анализ, индукция и дедукция. При выполнении исследования





были проанализированы данные, полученные из вторичных баз данных. Были изучены факторы, влияющие на развитие государственных закупок, и проведён их углублённый анализ.

Результаты исследования. На развитие государственных закупок оказывает влияние не только воздействие инноваций и инвестиций, но и других внешних факторов. К их числу относятся, например, экономические, правовые, политические, социальные, глобальные и технологические факторы.

Экономические факторы включают в себя: экономический рост и развитие, инфляцию, финансовую стабильность и бюджетную политику правительства. Развитие государственных закупок зависит от экономического роста. Если темпы экономического роста высоки, возможности государства по осуществлению закупок увеличиваются, что способствует внедрению инноваций, реализации новых проектов и развитию инфраструктурных разработок. Высокий уровень инфляции приводит к удорожанию государственных закупок и одновременно осложняет правильное управление бюджетом. Финансовая стабильность бюджета обеспечивает эффективность государственных закупок.





1-рasm. Факторы, влияющие на государственные закупки¹

Кроме того, средства, направляемые на государственные закупки, зависят от экономической политики правительства, например, от расходов на инвестиции и инфраструктуру. Бюджетные проблемы оказывают влияние на объём и качество государственных закупок.

К правовым и законодательным факторам относятся регулирование законодательства, а также нарушения закона и коррупция. Большое значение имеют законы, нормативно-правовые акты и критерии, регулирующие систему государственных закупок. Изменения в законодательстве, включая правила, касающиеся прозрачности, конкуренции и борьбы с коррупцией, являются ключевым фактором в развитии системы государственных закупок. Коррупция и нарушения закона в государственных закупках оказывают значительное влияние на эффективность системы. Эти факторы снижают прозрачность и доверие в процессе государственных закупок.

К политическим факторам можно отнести политическую стабильность, а также политику и стратегические планы правительства. Система государственных закупок напрямую связана с политической стабильностью в стране. Политические проблемы и конфликты снижают экономическую активность, что, в свою очередь, уменьшает эффективность государственных закупок. Политика и стратегии правительства в области государственных закупок, привлечение инвестиций и сотрудничество с частным сектором определяют развитие системы государственных закупок.

Социальные факторы в основном формируются исходя из социальных потребностей и запросов, а также принципов социальной справедливости и устойчивости. Государственные закупки осуществляются для удовлетворения потребностей социальных слоёв населения. Если социальные потребности населения (например, в образовании, здравоохранении, инфраструктуре производства) высоки, государственные закупки должны быть на высоком уровне. Через государственные закупки важно поддерживать социальную стабильность, улучшать условия жизни населения и создавать рабочие места.

Местные и глобальные факторы, в свою очередь, включают глобальные экономические тенденции, а также такие элементы, как местное производство и экспорт. Система государственных закупок может оказывать влияние на глобальные экономические условия. Например, международная торговля,

¹ Авторская разработка





валютные курсы и потоки глобальных инвестиций влияют на государственные закупки. Государственные закупки имеют большое значение для поддержки местных производителей, создания рабочих мест и повышения экспортного потенциала. Если местные производители способны предлагать инновационные продукты, это оказывает положительное влияние на развитие государственных закупок.

